AGROINNOVASIYA jurnali
Volume 01, Issue 01, 2023 ISSN (E): xxxx-xxxx

TERMIZ AGROTEXNOLOGIYALAR VA INNOVATSION RIVOJLANISH INSTITUTIDA ERISHILGAN NATIJALAR VA ISTIQBOLDA AMALGA OSHIRILISHI LOZIM BO‘LGAN USTUVOR VAZIFALAR

Juraev A.S
Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish institute rector iiqtisod fanlari doktori, professor

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti **2021 yil oktabr oyida** tashkil etildi.

Institutda hozirgi kunda **3 ta,** jumladan **Agrobiologiya**, **Agrologistika va biznes**, **Meva-sabzavotchilik va texnologiya** fakultetlari hamda **10 ta** kafedra tashkil etildi, shuningdek **24 ta ta’lim yo‘nalishi** va **10 ta magistratura** bo‘yicha kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi.

Hududning kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini e’tiborga olib, **kechki ta’lim** tashkil etildi, **doktoranturaga** qabul amalga oshirilmoqda.

Institutda **jami 3141 nafar** talabalar, jumladan **kunduzgi** ta’limda **1932 nafar, sirtqi** ta’limda **1048 nafar, kechki** ta’limda **47 nafar** hamda **magistraturada 114 nafar** talabalar o‘qimoqda.

Institutda asosiy shtatdagi **143 nafar** professor-o‘qituvchilardan **48 nafari ilmiy darajaga** ega bo‘lib, ularning **11 nafari fan doktori**, professorlar, **37 nafari fan nomzodi**, **falsafa doktori** (PhD), **dotsentlar** bo‘lib, **ilmiy salohiyat 33,6 foizni** tashkil qilmoqda.

Institutda zamonaviy **17 ta** o‘quv laboratoriya, **6 ta** kompyuter sinfi, **3 ta** issiqxona, **1 ta 40 tonnalik** muzlatkich ombori tashkil etildi.

O‘quv jarayoni **to‘liq raqamlashtirildi**, ta’limning **kredit-modul** tizimi joriy etildi. Malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlari **hududiy kadrlar iste’molchilari** bilan birgalikda **Avstriya, Germaniya** va **Rossiya** kabi davlatlarning nufuzli qishloq xo‘jaligi oliy ta’lim muassasalari bilan qiyosiy tahlil qilinib, **qaytadan ishlab chiqildi va tasdiqlandi.**

11 ta davlatning **20 ta** yetakchi oliy ta’lim muassasalari, tadqiqot markazlari va tashkilotlari bilan **samarali hamkorlik aloqalar o‘rnatildi**.

Institutning:

- **anorchilik yo‘nalishidagi** professor-o‘qituvchilari, yosh olimlari va doktorantlari anor yetishtirish va qayta ishlash bo‘yicha tajribalarni o‘rganish uchun **anorchilik va sitrus mevachilik rivojlangan Turkiya, Rossiya va Ozarbayjonga** stajirovkaga yuborildi. Shuningdek, **52 nafar** professor-o‘qituvchilar **Rossiya,**

Belorussiya, Ozarbayjon, Latviya, Malayziya, Qozog‘iston davlatlariga malaka oshirib qaytishdi;

- **40 nafardan ortiq** iqtidorli talabalar **Germaniya** davlatiga ishlab chiqarish amaliyotini o‘tadi;

- **AQSh, Germaniya, Yaponiya, Malayziya, Janubiy Koreya** davlatlaridagi **top-1000**talikdagi oliy ta’lim va ilmiy muassasalardan **11 nafar**. xorijiy professor-o‘qituvchilar dars mashg‘ulotlariga jalb etildi;

- davlat ilmiy texnika dasturlari doirasida **1,2 mlrd so‘mlik amaliy ilmiy-tadqiqot ishlari** bajarildi;

- institut yosh olimlari, ilmiy-tadqiqotchilari tomonidan **22 ta** dissertatsiyalar **himoya qilindi;**

- **72 nafar** yosh pedagog xodimlar hududiy agrar soha, jumladan sabzavotchilik, paxtachilik, g‘allachilik, seleksiya va urug‘chilik, dorivor o‘simliklarni yetishtirish, chorvachilik va veterinariya, qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishga jalb etildi.

Institutda fan, ta’lim va ishlab chiqarishning uzviy integratsiyasini ta’minlash hamda talabalarni amaliyot o‘tashlari uchun **12 ta** yirik tashkilotlar va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan **10 yillik** hamkorlik shartnomalari tuzildi va **8 ta** mutaxassislik kafedralar tomonidan **9 ta** kafedralari filiallari tashkil etildi.

Hududiy agrar soha muammolarini hal etish bo‘yicha **xo‘jalik shartnomalari** asosida **2021 yilda 138,0 mln so‘m, 2022 yilda 205,0 mln so‘m, 2023 yilda 350,0 mln so‘m mablag‘** ishlab topildi.

116 ta o‘quv adabiyotlari yaratildi, **7 ta** ilmiy ishlanmaga **patent**, **11 ta** ishlanmaga **guvohnoma** va **1 ta mualliflik huquqi guvohnomasi** olindi.

2023 yilda Halqaro **top-1000** talik reyting agentligining ro‘yxatiga Institutimiz **reportyor** sifatida kiritildi.

Xalqaro va OAK e’tirofidagi jurnallarda **2021 yilda 321 ta, 2022 yilda 460 ta, 2023 yilda 580 ta** maqolalar chop ettirildi.

Institutga tegishli bo‘lgan **3** ta ob’ektning tom va yer qismlariga jami quvvati **182** KVT bo‘lgan **1** mlrd **630** mln.so‘mlik quyosh panellari o‘rnatildi, natijada o‘tgan yilga nisbatan **124 ming** kVt/soat elektr energiya tejaldi, bu 124,0 mln. so‘m tejalganini bildiradi.

Talaba yoshlarni moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha salmoqli ishlar qilindi, jumladan **2021 yilda 102 nafar** talabaga **28,5 mln so‘m, 2022 yilda 114 nafar** talabaga **41,4 mln so‘m, 2023 yilda 246 nafar** talabaga **428,6 mln so‘m** mabdag‘lar rag‘batlantirish va moddiy yordam uchun ajratildi. Shuningdek, **o‘tgan**

2022/2023 o‘quv yilida **ijara to‘lovlari uchun 557 nafar** talabaga **378,0 mln so‘m** mabdag‘ to‘lab berildi.

Talabalarning bo‘sh vaqtlarida mablag‘ ishlab topishlari uchun **2021 yilda 65 nafar, 2022 yilda 172 nafar, 2023 yilda 318 nafar talabalarning bandligini ta’minlashga** ko‘maklashildi.

Oxirgi ikki yilda **2 nafar** iqtidorli talaba **Prezident stipendiyasi** sohibi bo‘ldi.

“Agrar soha yoshlari” respublika forumi doirasida O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi tasarrufidagi barcha oliy ta’lim muasasalari va tashkilotlari o‘rtasida o‘tkazilgan **"ZAKOVAT" intellektual o‘yini**da institut talaba-yoshlari jamoasi **faxrli 1-o‘rinni** egalladi.

2021 yildan boshlab, jonajon mamlakatimizda keng miqyosda **“Yashil makon” umummilliy loyihasi** tatbiq etilmoqda. Har yili O‘zbekistonda **200 million** tup daraxt va buta ko‘chatlari ekish maqsad qilingan, bu tashabbus o‘ziga xos qadriyat sifatida xalqimiz tomonidan keng qo‘llab-quvvatlanmoqda.

Surxondaryo viloyatida **2023 yil kuz mavsumida 6 mln 827 ming dona** manzarali, mevali daraxt va buta ko‘chatlarini ekish rejalashtirildi, xususan **institut tomonidan** joriy yil kuzgi mavsumda **2700 tup** ko‘chatlar ekildi.

Viloyat **iqlimining o‘ziga xosligi, haroratning keskin o‘zgaruvchanligi, afg‘on shamoli, garmselni** nobatga olib, institut olimlari tomonidan **manzarali daraxtlar turlarini ekish bo‘yicha ommabop tavsiyanoma ishlab chiqildi**.

Viloyatda bugungi kunda obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish masalasida suv tejovchi texnologiyalarni joriy etgan holda qurg‘oqchilikka chidamli bo‘lgan o‘simlik turlari va navlarini ekishga e’tibor qaratilmoqda.

Institut hududida **2079 tup** manzarali, buta ko‘chatlari bilan birgalikda**, 212 tup olma, 88 tup anor, 35 tup o‘rik, bodom** kabi mevali daraxtlar ham ekilib, parvarish qilinmoqda.

“Ota-onalar va ustozlar bog‘i” tashkil etildi va har bir daraxtga **professor-o‘qituvchilar biriktirildi,** ko‘chatlarni sug‘orish, parvarishlash, sog‘lom o‘sishini nazorat qilish va atrofni obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish ishlarini amalga oshirishda **institutning yer uchastkalari tegishli fakultet va kafedralarga biriktirildi**.

Institutda kelgusida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalar:

1. Hududdagi yoshlarni oliy ta’limga jalb qilishning qamrovini oshirish maqsadida, institutda ta’lim yo‘nalishlarini maqbullashtirish hisobiga **2024/2025 o‘quv yilidan boshlab 8 ta**, jumladan **Iqtisodiyot** (qishloq xo‘jaligida), **Raqamli iqtisodiyot** (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha), **Logistika** (agrologistika), **Axborot tizimlari va texnologiyalari** (qishloq xo‘jaligida raqamli texnologiyalar),

Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (qishloq xo‘jaligida), **Qishloq va suv xo‘jaligida texnik servis**, **Qishloq xo‘jaligida innovatsion texnika va texnologiyalarni qo‘llash**, **Organik qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishlash**, **Turizm** (agroturizm) ta’lim yo‘nalishlariga yangidan qabul tashkil etiladi. Bunda, qishloq xo‘jaligida innovatsion resurstejamkor texnologiyalarni hamda raqamlashtirilgan agrotexnologiyalarni joriy qilish, tuproq-iqlim sharoitidan kelib chiqib hududlarni ixtisoslashtirish, eksportbop va daromadbop qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirishni tashkil etish bo‘yicha zamonaviy bilimlarga ega bo‘lgan kadrlar tayyorlanadi hamda yoshlarni oliy ta’limga qamrovi yanada oshiriladi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 28 oktabrdagi “Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish institutini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5269-qarori ijrosi yuzasidan **2024 yilda:**

- institutning Axborot-maslahat markazi (Extension center) hududida sitrus va subtropik ekinlar (limon, anor, xurmo, kivi, zaytun) ko‘chatlarini yetishtiruvchi issiqxona tashkil etiladi;

- Axborot-maslahat markazi (Extension center) hududida qishloq xo‘jaligi ekinlarini doimiy suv bilan ta’minlash bo‘yicha vertikal sug‘orish qudug‘ini burg‘ulash, ishga tushirish va suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish hamda dala atrofini to‘siq (sim-to‘r) bilan o‘raladi;

- chorvachilik, baliqchilik mahsulotlari, meva-sabzavot, moyli ekinlar, dorivor o‘simliklarni qayta ishlash, qadoqlash bo‘yicha zamonaviy mini sexlarni tashkil etiladi;

- xorijiy va mahalliy ishlab chiqarish korxonalari tomonidan ishlab chiqilgan mahsulot, ishlanmalar, jihozlarni sinovdan o‘tkazish va targ‘ib qilish uchun “Ko‘rgazmali auditoriyalar” tashkil etiladi;

- veterinariya diagnostika o‘quv laboratoriyasi hamda Axborot-maslahat markazi (Extension center) hududida qishloq xo‘jaligi hayvonlarini ko‘paytirish va tajribalar olib borish maqsadida maxsus bino (vivariy) quriladi;

- zamonaviy madaniyat saroyi, talabalar ovqatlanish majmuasi hamda Axborot resurs markazini o‘zida mujassam etgan yaxlit bino quriladi;

- qo‘shimcha **400 o‘rinli** talabalar turar joyi qurish orqali qamrov **30 foizga** yetkaziladi;

3. Hozirgi kunda institutda 1745 o‘ringa mo‘ljallangan 3 ta o‘quv bino mavjud bo‘lib, 3 smenada o‘qish tashkil etilgan. Institutga talabalar kontingenti oshib borishini hisobga olib, **2024/2025 o‘quv yili**dan institutga yaqin (oraliq masofa **3 km**) bo‘lgan Termiz tuman kasb-hunar maktabi (sobiq Halqobod pedagogika

kolleji)ning **735 o‘rinli** o‘quv binosi va **100 o‘rinli** talabalar turar joyini foydalanish uchun olib berilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bunda, kelgusida **4000 nafardan** ortiq talabalar tahsil olishini hisobiga yuzaga keladigan muammo bartaraf etiladi.

4. Surxondaryo viloyatida sabzavotchilik va polizchilikka katta e’tibor berilmoqda. Ammo, ularning urug‘chiligiga ixtisoslashgan birorta xo‘jalik bo‘lmaganligi sababli asosan chet eldan olib kelingan urug‘lar, qisman havaskor sabzavotchilar tomonidan tayyorlangan urug‘lardan foydalanilmoqda. Natijada issiqxonalarda **100 %**, ochiq dalalarda **70-80% chet ellardan olib kelingan urug‘lar ekilmoqda**. Zamonaviy infratuzilmaga ega bo‘lgan, urug‘larni yig‘ib olish, tozalash, saralash, qadoqlash uchun mo‘ljallangan uskunalar bilan jihozlangan, o‘z yer maydoniga ega bo‘lgan sabzavot, poliz ekinlari urug‘chiligiga ixtisoslashgan **“Seleksiya-urug‘chilik” markazini** Institut huzurida tashkil etishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

5. Kelgusida ilmiy salohiyatni bosqichma-bosqich oshirish imkoniyatini yaratish maqsadida Institut huzurida 06.01.01-**Umumiy dehqonchilik. Paxtachilik**; 06.01.05-**Seleksiya va urug‘chilik**; 06.01.06-**Sabzavotchilik** ixtisosliklaridan falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi **Ilmiy Kengash ochish** maqsadga muvofiq hisoblanadi.